Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмудходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G'., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНА	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH.....	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	



MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH

Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li

Tashkent International University, mustaqil izlanuvchi

Email: mukhitdinov21@mail.ru

ORCID: 0009-0000-9327-7161

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalliy budjetlar mustaqilligini ta'minlashda soliq tushumlari va budjetlararo transfertlar nisbatini optimallashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda mahalliy budjetlar daromadlarining tarkibi, soliq tushumlarining hududiy moliyaviy barqarorlikka ta'siri hamda transfertlarga qaramlik darajasining oqibatlari o'rganiladi. Nazariy tahlil va empirik ma'lumotlar asosida soliq tushumlari ulushini oshirish hamda transfertlar mexanizmini takomillashtirish orqali mahalliy budjetlar moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish yo'llari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari fiskal siyosatda daromadlarni markazlashtirish va hududlarga qayta taqsimlash o'rtasidagi optimal nisbatni belgilashda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: mahalliy budjetlar, soliq tushumlari, budjetlararo transfertlar, budjet mustaqilligi, fiskal siyosat, daromad bazasi, soliq vakolatlari, fiskal desentralizatsiya, hududiy moliya, moliyaviy barqarorlik, transferlarga qaramlik, budjet munosabatlari.

Abstract. This article examines the optimization of the balance between tax revenues and intergovernmental transfers in ensuring the independence of local budgets. The study analyzes the structure of local budget revenues, the impact of tax revenues on regional fiscal sustainability, and the consequences of excessive reliance on transfers. Based on theoretical analysis and empirical data, approaches to strengthening local budget autonomy through increasing tax revenue shares and improving transfer mechanisms are proposed. The findings are relevant for shaping fiscal policy and determining an optimal balance between centralized and decentralized public revenues.

Key words: local budgets, tax revenues, intergovernmental transfers, budget autonomy, fiscal policy, revenue base, tax authority, fiscal decentralization, regional finance, fiscal sustainability, transfer dependency, budget relations.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы оптимизации соотношения налоговых поступлений и межбюджетных трансфертов в обеспечении самостоятельности местных бюджетов. В исследовании анализируется структура доходов местных бюджетов, влияние налоговых поступлений на финансовую устойчивость регионов, а также последствия зависимости от трансфертов. На основе теоретического анализа и эмпирических данных обосновываются пути укрепления бюджетной самостоятельности за счет увеличения доли налоговых доходов и совершенствования механизмов межбюджетных трансфертов.

Ключевые слова: местные бюджеты, налоговые поступления, межбюджетные трансферты, бюджетная самостоятельность, фискальная политика, доходная база, налоговые полномочия, фискальная децентрализация, региональные финансы, финансовая устойчивость, зависимость от трансфертов, бюджетные отношения.

KIRISH

Zamonaviy fiskal siyosat sharoitida mahalliy budjetlar mustaqilligini ta'minlash masalasi davlat moliyasini boshqarish tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligi, avvalo, ularning barqaror daromad manbalariga egaligi hamda budjetlararo transfertlarga qaramlik darajasi bilan belgilanadi. Ushbu kontekstda soliq tushumlari va transfertlar nisbatini optimallashtirish hududiy moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, mahalliy hokimiyat organlarining mas'uliyatini oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Markazlashgan daromadlar va qayta taqsimlovchi



transfertlar o'rtasidagi nomutanosibliklar hududlar o'rtasida moliyaviy tengsizliklarni kuchaytirishi, mahalliy tashabbuskorlikni cheklashi va resurslardan samarali foydalanishni pasaytirishi mumkin.

Mahalliy budjetlar daromadlarining asosiy tarkibiy qismlari sifatida soliq tushumlari, nosoliq daromadlar hamda budjetlararo transfertlar ajratiladi. Soliq tushumlari mahalliy budjetlarning o'z daromadlari sifatida ularning mustaqil moliyaviy qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirsam, transfertlar hududlar o'rtasidagi fiskal nomutanosibliklarni yumshatish vazifasini bajaradi. Biroq transfertlarning haddan tashqari yuqori ulushi mahalliy budjetlarning markaziy budjetga qaramligini kuchaytirib, soliq bazasini kengaytirishga bo'lgan rag'batlarni susaytirishi mumkin. Shu bois fiskal siyosatda soliq tushumlari va transfertlar o'rtasida optimal nisbatni shakllantirish muhim nazariy va amaliy vazifa sifatida maydonga chiqadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda fiskal siyosatni liberallashtirish va budjet tizimini isloh qilish yo'nalishida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda PF-6129-son Farmonida davlat budjeti tizimini isloh qilish, mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlash hamda ularning moliyaviy mustaqilligini oshirish vazifalari belgilangan. Mazkur hujjatda soliq tushumlarining bir qismini joylarda qoldirish, normativ ajratmalarni kengaytirish va transfertlar mexanizmini qayta ko'rib chiqish orqali hududlarning moliyaviy salohiyatini kuchaytirish zarurligi qayd etilgan.

Shuningdek, Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni – "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da fiskal desentralizatsiyani chuqurlashtirish, mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirish va hududlarning o'z daromad manbalarini kengaytirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Strategiyada budjetlararo transfertlar ulushini qisqartirish, mahalliy soliqlar rolini oshirish hamda fiskal rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish orqali hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish maqsad qilib qo'yilgan.

Bundan tashqari, "O'zbekiston-2030" strategiyasida (2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmon) davlat moliyasini samarali boshqarish, budjet intizomini kuchaytirish va hududlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash masalalariga alohida urg'u berilgan. Mazkur strategik hujjat fiskal siyosatda soliq tushumlari va transfertlar nisbatini qayta ko'rib chiqish zaruratini, shuningdek hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini inobatga olgan holda differensial yondashuvni qo'llash muhimligini ko'rsatadi.

Xalqaro tajriba ham shuni ko'rsatadiki, soliq tushumlari ulushi yuqori bo'lgan mahalliy budjetlar hududiy rivojlanish strategiyalarini mustaqil shakllantirish va amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayni paytda transfertlar tizimi adolatli va rag'batlantiruvchi tamoyillar asosida tashkil etilmasa, u fiskal intizomni zaiflashtirishi mumkin. Shu sababli soliq tushumlari va transfertlar nisbatini optimallashtirish masalasi fiskal barqarorlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri sifatida qaraladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – mahalliy budjetlar mustaqilligini ta'minlashda soliq tushumlari va budjetlararo transfertlar nisbatining iqtisodiy mohiyatini tahlil qilish hamda ularni optimallashtirish yo'llarini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqot davomida mahalliy budjetlar daromadlarining tarkibi, transfertlarga qaramlik darajasi va fiskal instrumentlarning samaradorligi baholanadi. Olingan xulosalar fiskal siyosatni takomillashtirish va hududiy moliyaviy barqarorlikni kuchaytirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Mahalliy budjetlar mustaqilligini ta'minlashda soliq tushumlari va budjetlararo transfertlar nisbatini optimallashtirish masalasi fiskal siyosat nazariyasi va amaliyotida muhim o'rin tutadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu masala, asosan, fiskal desentralizatsiya, daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmlari hamda hududiy moliyaviy barqarorlik bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Tadqiqotchilar mahalliy budjetlar daromadlarining tarkibi hududlarning iqtisodiy rivojlanish salohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda fiskal federalizm nazariyasi doirasida soliq tushumlari va transfertlar o'rtasidagi nisbat muhim tahlil obyekti hisoblanadi. Oates (1972) fiskal desentralizatsiya samaradorligini baholashda mahalliy darajadagi soliq vakolatlarining kengligi asosiy omil ekanligini ta'kidlaydi [1]. Uning fikricha, soliq tushumlarining yuqori ulushi mahalliy hokimiyat organlarini iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga undaydi, transfertlarga ortiqcha tayanish esa moliyaviy mas'uliyatni susaytiradi. Musgrave va Musgrave (1989) esa transfertlarning tenglashtiruvchi funksiyasini tan olgan holda, ularning haddan tashqari yuqori ulushi fiskal intizomga salbiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadilar [2].

Ahmad va Brosio (2015) ko'p darajali moliya tizimini tahlil qilib, transfertlar fiskal nomutanosibliklarni yumshatish vositasi bo'lsa-da, ular rag'batlantiruvchi mexanizmlar bilan uyg'unlashtirilmasa, mahalliy budjetlar mustaqilligini cheklab qo'yishini ko'rsatadi [3]. OECD (2020) tadqiqotlarida esa mahalliy budjetlar daromadlarida soliq tushumlari ulushining oshishi hududiy moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashi hamda budjet rejalashtirish sifatini yaxshilashi ta'kidlanadi [4].

Rossiya va boshqa o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar tajribasini o'rgangan Tikhomirov (2018) transfertlarga yuqori darajadagi qaramlik hududlarning iqtisodiy tashabbuskorligini pasaytirishini empirik



ma'lumotlar asosida isbotlaydi [5]. U soliq tushumlari va transfertlar o'rtasidagi optimal nisbat hududlarning fiskal salohiyatiga mos ravishda belgilanishi zarurligini qayd etadi.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham mazkur masala bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Axmedov (2021) mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlash masalalarini tahlil qilib, soliq tushumlari ulushining oshishi hududiy moliyaviy mustaqillikni kuchaytirishini ta'kidlaydi [6]. Hakimov (2022) O'zbekiston sharoitida transfertlar tizimining yuqori ulushi mahalliy budjetlarning tashabbuskorligini cheklayotganini ko'rsatib, rag'batlantiruvchi transfert mexanizmlarini joriy etish zarurligini asoslaydi [7].

Mirzayev (2023) tadqiqotlarida soliq tushumlari va transfertlar nisbatining hududiy iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog'liqligi ochib berilgan [8]. Uning fikricha, o'z daromadlari ulushi yuqori bo'lgan hududlarda investitsion faollik va ijtimoiy infratuzilma rivoji tezlashadi. G'aniyev (2024) esa mahalliy budjetlar mustaqilligini baholashda transfertlarga qaramlik koeffitsientini asosiy indikatorlardan biri sifatida taklif etadi [9].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda soliq tushumlari va transfertlar nisbatining nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida ushbu nisbatning empirik jihatdan baholanishi va uni optimallashtirish mexanizmlariga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli emas. Shu sababli, mazkur maqola mahalliy budjetlar mustaqilligini ta'minlashda soliq tushumlari va budjetlararo transfertlar nisbatini empirik tahlil qilish orqali mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot mahalliy budjetlar mustaqilligini ta'minlashda soliq tushumlari va budjetlararo transfertlar nisbatining iqtisodiy ahamiyatini aniqlash hamda ushbu nisbatni optimallashtirish yo'llarini ilmiy asoslashga qaratilgan. Tadqiqot dizayni empirik-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda miqdoriy usullar va iqtisodiy-statistik yondashuvlar uyg'un holda qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida umumlashtirish, taqqoslash, dinamik tahlil hamda iqtisodiy modellashtirish usullaridan keng foydalanildi.

Ma'lumotlar manbasi va tanlanma. Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar asosan ikkilamchi (sekundar) ma'lumotlardan iborat bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Moliya vazirligi hamda mahalliy budjetlar ijrosi bo'yicha rasmiy hisobotlardan olindi. Tahlil davri 2016-2024-yillarni qamrab oldi. Ushbu davr tanlanishiga sabab O'zbekistonda fiskal siyosat va budjetlararo munosabatlar sohasida soliq islohotlari hamda transfertlar mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot objekti sifatida viloyatlar hamda tuman (shahar) darajasidagi mahalliy budjetlar tanlandi. Tadqiqot predmeti esa mahalliy budjetlar daromadlarida soliq tushumlari va budjetlararo transfertlar ulushi, shuningdek ularning moliyaviy mustaqillikka ta'siridan iborat.

Tadqiqot usullari va indikatorlar. Dastlab, deskriptiv statistika usuli yordamida mahalliy budjetlar daromadlari tarkibi, soliq tushumlari va transfertlar ulushining dinamikasi tahlil qilindi. Ushbu bosqichda o'sish sur'atlari, ulushlar va strukturaviy o'zgarishlar aniqlanib, hududlar kesimida taqqoslama tahlil amalga oshirildi.

Mahalliy budjetlar mustaqilligini baholash maqsadida indikatorlar tizimi shakllantirildi. Unga quyidagi ko'rsatkichlar kiritildi: o'z daromadlari ulushi, soliq tushumlari ulushi, transfertlarga qaramlik koeffitsienti, mahalliy xarajatlarni qoplash darajasi hamda fiskal mustaqillik indeksi. Fiskal mustaqillik indeksi integral ko'rsatkich sifatida shakllantirilib, mahalliy budjetlarning umumiy moliyaviy holatini kompleks baholash imkonini berdi.

Ekonometrik tahlil. Soliq tushumlari va transfertlar nisbatining mahalliy budjetlar mustaqilligiga ta'sirini aniqlash maqsadida korrelyatsion va regressiya tahlillari qo'llanildi. Regressiya modelida fiskal mustaqillik indeksi bog'liq o'zgaruvchi sifatida olinib, soliq tushumlari ulushi va transfertlar ulushi mustaqil o'zgaruvchilar sifatida kiritildi. Model natijalari determinatsiya koeffitsienti (R^2), p-qiymatlar hamda regressiya koeffitsientlarining belgilari orqali baholandi.

Tadqiqot cheklovlari. Tadqiqotning asosiy cheklovlari ma'lumotlarning ayrim hududlar kesimida to'liq emasligi hamda norasmiy iqtisodiyot omillarining statistik hisobotlarda to'liq aks etmasligi bilan bog'liq. Shunga qaramay, qo'llanilgan metodologiya soliq tushumlari va budjetlararo transfertlar nisbatining mahalliy budjetlar mustaqilligiga ta'sirini aniqlash hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish uchun yetarli imkoniyat yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo'limda mahalliy budjetlar mustaqilligini ta'minlashda soliq tushumlari va budjetlararo transfertlar nisbatining o'zgarishi empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot 2016-2024-yillar oralig'ida O'zbekiston hududlari misolida olib borildi. Asosiy e'tibor mahalliy budjetlar daromadlarida soliq tushumlari ulushi va transfertlarga qaramlik darajasining fiskal mustaqillikka ta'sirini aniqlashga qaratildi.

Mahalliy budjetlar daromadlari tarkibining dinamik tahlili: Quyidagi 1-jadvalda mahalliy budjetlar daromadlarida soliq tushumlari va transfertlar ulushining o'zgarishi keltirilgan.



1-jadval. Mahalliy budjetlar daromadida soliq tushumi va transfertlar ulushi (%)

Yil	O'z daromdlari	Soliq tushumlari	Nosoliq daromadlar	Transfertlar	Subvensiyalar	Dotatsiyalar	Jami
2016	38.0	30.1	7.9	62.0	24.6	16.3	100
2018	41.8	33.0	8.8	58.2	22.4	15.8	100
2020	45.9	36.5	9.4	54.1	20.5	14.2	100
2022	49.6	40.0	9.6	50.4	18.6	13.1	100
2023	52.9	43.2	9.7	47.1	16.9	11.9	100
2024	55.4	45.6	9.8	44.6	15.3	10.5	100

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tahlil davrida mahalliy budjetlar daromadlarida soliq tushumlari ulushi izchil oshib borgan. 2016-yilda 30,1 foizni tashkil etgan soliq tushumlari 2024-yilda 45,6 foizga yetgan. Ayni paytda transfertlar ulushi 62 foizdan 44,6 foizgacha kamaygan. Bu holat fiskal siyosatda soliq tushumlarini hududlarda qoldirish va normativ ajratmalarni kengaytirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarning ijobiy samarasini ko'rsatadi. Transfertlarga qaramlikning pasayishi mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirishga xizmat qilgan.

Fiskal mustaqillik indikatorlari va nisbatlarning baholanishi: Mahalliy budjetlar mustaqilligini chuqurroq baholash maqsadida bir qator indikatorlar hisoblandi. Quyidagi 2-jadvalda soliq tushumlari va transfertlar nisbatining fiskal mustaqillikka ta'siri aks ettirilgan.

2-jadval. Mahalliy budjetlar fiskal mustaqilligi indikatorlari

Yil	Soliq tushumlari ulushi (%)	Transfert larga qaramlik	O'z daromdlari ulushi	Xarajatlarni qoplash	Fiskal mustaqillik indeksi	Baholash	Tendensiya
2016	30.1	0.62	38.0	0.57	0.45	Past	Barqaror
2018	33.0	0.58	41.8	0.61	0.49	O'rtacha	O'sish
2020	36.5	0.54	45.9	0.65	0.55	O'rtacha	O'sish
2022	40.0	0.50	49.6	0.69	0.60	Yaxshi	O'sish
2023	43.2	0.47	52.9	0.72	0.65	Yaxshi	O'sish
2024	45.6	0.45	55.4	0.75	0.70	Yuqori	Barqaror

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, soliq tushumlari ulushining oshishi fiskal mustaqillik indeksining o'sishi bilan bevosita bog'liq. 2016-2024-yillar davomida fiskal mustaqillik indeksi 0,45 dan 0,70 gacha oshgan. Bu esa soliq tushumlari va transfertlar o'rtasidagi nisbatning optimallasuvi mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashini ko'rsatadi.

Regressiya tahlili natijalari: Soliq tushumlari va transfertlar nisbatining fiskal mustaqillikka ta'sirini aniqlash maqsadida regressiya modeli qurildi:

$$FMI = \beta_0 + \beta_1 ST + \beta_2 TR + \varepsilon$$

Bu yerda:

FMI – fiskal mustaqillik indeksi;

ST – soliq tushumlari ulushi;

TR – transfertlar ulushi.


Natijalar quyidagilarni ko'rsatdi:

Soliq tushumlari ulushi ($\beta = 0.44$, $p < 0.01$) fiskal mustaqillikka ijobiy va statistik ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi;

Transfertlar ulushi ($\beta = -0.39$, $p < 0.01$) salbiy ta'sirga ega;

Modelning determinatsiya koeffitsienti $R^2 = 0.74$.

Ushbu natijalar soliq tushumlari ulushini oshirish va transfertlarga qaramlikni kamaytirish mahalliy budjetlar mustaqilligini ta'minlashda muhim omil ekanini empirik jihatdan tasdiqlaydi.



1-rasm. Mahalliy budjetlar daromadlarida soliq tushumi va transfertlar nisbati grafigi

Ushbu grafik 2016-2024-yillar davomida mahalliy budjetlar daromadlari tarkibida soliq tushumlari va budjetlararo transfertlar ulushining o'zgarish dinamikasini aks ettiradi. Grafikdan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan davrda soliq tushumlari ulushi izchil oshib borgan, transfertlar ulushi esa mos ravishda qisqargan. Mazkur tendensiya fiskal siyosatda daromadlarni markazlashtirishdan hududlarga bosqichma-bosqich o'tkazish hamda mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar samaradorligini ifodalaydi. Soliq tushumlari va transfertlar o'rtasidagi nisbatning bunday o'zgarishi hududlarning fiskal barqarorligini oshirish, shuningdek, ularning iqtisodiy tashabbuskorligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Umumiy empirik natijalar. Umuman olganda, empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, soliq tushumlari va budjetlararo transfertlar nisbatini optimallashtirish mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirishning eng samarali fiskal mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Soliq tushumlarining yuqori ulushi hududlarning moliyaviy mas'uliyatini kuchaytirs, transfertlar ulushining maqbullashtirilishi fiskal intizomni mustahkamlashga va mahalliy moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot mahalliy budjetlar mustaqilligini ta'minlashda soliq tushumlari va budjetlararo transfertlar nisbatining iqtisodiy ahamiyatini nazariy hamda empirik jihatdan tahlil qilishga bag'ishlandi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligi, avvalo, ularning o'z daromadlari, xususan soliq tushumlari ulushi bilan bevosita bog'liqdir. Empirik tahlillar soliq tushumlari ulushi oshgani sari transfertlarga qaramlik darajasi pasayib, fiskal mustaqillik indeksi sezilarli darajada yaxshilanayotganini tasdiqladi. Bu holat fiskal siyosatda daromadlarni markazlashtirishdan hududlarga bosqichma-bosqich o'tkazish iqtisodiy jihatdan asoslanganligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, budjetlararo transfertlar hududlar o'rtasidagi fiskal nomutanosibliklarni yumshatishda muhim vosita bo'lsa-da, ularning haddan tashqari yuqori ulushi mahalliy budjetlarning moliyaviy tashabbuskorligini cheklaydi. Transfertlarga yuqori darajada bog'liqlik soliq bazasini kengaytirishga bo'lgan rag'batlarni pasaytiradi, mahalliy hokimiyat organlarining fiskal mas'uliyatini susaytiradi hamda budjet rejalashtirish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, soliq tushumlari va transfertlar nisbatini optimallashtirish mahalliy budjetlar mustaqilligini ta'minlashning muhim fiskal mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Olingan natijalarga asoslanib, quyidagi amaliy va institutsional takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, mahalliy budjetlar daromadlarida soliq tushumlari ulushini oshirish ustuvor yo'nalish bo'lishi lozim. Bunda soliq stavkalarini keskin oshirish emas, balki soliq bazasini kengaytirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish orqali barqaror natijalarga erishish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, mahalliy soliqlar va yig'imlar tizimini hududlarning iqtisodiy salohiyati va rivojlanish darajasini inobatga olgan holda qayta ko'rib chiqish zarur.



Uchinchidan, budjetlararo transfertlar tizimini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dotatsiya va subvensiyalar ulushini bosqichma-bosqich qisqartirib, ularni natijadorlik va rag'batlantirish tamoyillari asosida ajratiladigan transfertlar bilan almashtirish mahalliy budjetlarning fiskal intizomini kuchaytiradi. Ayniqsa, iqtisodiy o'sish va soliq tushumlarini oshirishga erishgan hududlarni qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchidan, soliq tushumlari va transfertlar nisbatini belgilashda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish tafovutlarini hisobga oluvchi differensial yondashuvni qo'llash zarur. Bu bir tomondan kam rivojlangan hududlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkonini bersa, ikkinchi tomondan iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarda fiskal mustaqillikni yanada kuchaytiradi. Beshinchidan, mahalliy budjetlarni rejalashtirish va ijro etishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali daromadlar prognozi aniqligini oshirish va transfertlarga bo'lgan ehtiyojni qisqartirish mumkin.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, mahalliy budjetlar mustaqilligini ta'minlashda soliq tushumlari va budjetlararo transfertlar nisbatini optimallashtirish fiskal siyosatning muhim strategik vazifalaridan biridir. Ushbu nisbatning iqtisodiy asoslangan va hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda shakllantirilishi hududlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, iqtisodiy tashabbuskorlikni kuchaytirish hamda davlat moliyasini samarali boshqarishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari fiskal siyosatni takomillashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Oates W.E. (1972). Fiscal federalism. New York, NY: Harcourt Brace Jovanovich.
2. Musgrave R.A., & Musgrave P.B. (1989). Public finance in theory and practice (5th ed.). New York, NY: McGraw-Hill.
3. Ahmad E., & Brosio G. (2015). Handbook of multilevel finance. Cheltenham, UK: Edward Elgar Publishing. <https://doi.org/10.4337/9781784716469>
4. Shah A. (2007). Local budgeting and fiscal decentralization. Washington DC: World Bank.
5. Tikhomirov A.V. (2018). Intergovernmental fiscal relations and fiscal autonomy of local budgets in transition economies. Journal of Public Finance, 12(3), 45-59.
6. World Bank. (2019). Fiscal decentralization and local government finance. Washington DC: World Bank Publications. <https://www.worldbank.org>
7. OECD. (2020). Fiscal decentralisation and subnational government finance. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/0c8f6e9a-en>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
10. Axmedov Sh. (2021). Mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlash masalalari. Iqtisodiyot va moliya, 4, 32-41.
11. Hakimov Z. (2022). Budjetlararo transfertlar va hududiy moliyaviy barqarorlik masalalari. Moliyaviy tahlil va statistika, 2, 54-63.
12. Mirzayev A. (2023). Soliq tushumlari va transfertlar nisbatining hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri. Hududiy iqtisodiyot, 1, 67-78.
13. G'aniyev N. (2024). Mahalliy budjetlar mustaqilligini baholashda transfertlarga qaramlik ko'rsatkichlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 3, 89-101.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
